

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM TARBIYASI

*Buxoro viloyati Romitan tumani
33-DMTT Tarbiyachisi
Zokirova Shaxinabonu Sobirovna
Tel: 99.830.46.77*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama jismoniy,emotional va ijtimoiy rivojlanish , xususiyatlari zamonaviy ta'lim tarbiya usullari hamda bu jarayonda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hamkorligi yoritilgan.Shuningdek, raqamli texnologiyalar asrida bolalar tarbiyasidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan

Kalit sòzlar: Maktabgacha ta'lim ,shaxs shakllanishi ,motorika,òyin orqali òrganish,emotsional intellekt,gadgetlar ijtimoiy moslashuv.

Reja:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasining óziga xosligi

2.Maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola soğlom rivojlanishidagi ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining óziga xos xususiyatlari.

Kirish

Inson shaxsining shakllanishi xuddi bino qurilishiga òxshaydi -poydevor qanchalik mustahkam bòlsa,bino ham shunchalik uzoq va muvozanatda turadi.Psixologik va neyrobiologik tadqiqotlar shuni kòrsatadiki,inson miyasining 85-90%qismi aynan 5-6yoshgacha bòlgan davrda shakllanib ulguradi.Demak,maktabgacha yoshdagi davr(3yoshdan 7 yoshgacha)bolaning hayotdagi muvaffaqiyati,xarakteri va dunyoqarashini belgilab beruvchi eng poydevor bosqichdir.Bugungi kun zamonaviy pedagogikasi bolaga faqatgina harf yoki raqamlarni mexanik òrgatish bilan cheklanib qolmasdan,uni yaxlit va mustaqil shaxs sifatida rivojlantirishni maqsad qilgan.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy tarixiy tajribasi òzlashtirish,ta'lim -tarbiya berish orqali amalga oshiriladi.Bu har xil faoliyatlarga yuzaga keladi.Bolalar egallashlari lozim bòlgan mazmunni tanlash,uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.Tarbiya va ta'limning mazmuni vositalari,metodlari, bolaning rivojlanish

jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Kòp ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolaga xat-savod òrgatish, Partaga òtqizib qòyib dars tayyorlatish kerak deb òylashadi. Biroq, bu yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyati bu -òyin. Maktabgacha yoshdagi bola òynab turib òrganadi. Òyin orqali u hayotiy qoidalarini, hisob-kitobni, mantiqni jamoda ishlashni òzlashtiradi. Bolaning tarbiyasida faqat boğchaga yoki oilaga tayanib qolish yaramaydi. Bu ikki muhit bir -birini tòldirishi kerak.

Tarbiyadagi eng kòp yòl qòyiladigan xatolar (GADJIZATSIYA telefon va planshetlar) Bugungi kun zamonaviy tarbiyasining eng oğriqli nuqtalaridan biri-bu bolalarning erta yoshdanoq raqamli texnologiyalarga, ya'ni telefon, planshet va televizorlarga boğlanib qolishi (gadjizatsiya) hisoblanadi. Kòp ota-onalar bolani tinchlantirish, ovqatlantirish yoki shunchaki chalğish uchun ularning qòliga telefon berib qòyishadi. Biroq, bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi:

Nutq ósishining kechikishi: Telefon bilan muloqot bir tomonlama bòladi . Bola jonli muloqotga kirishmaydi, natijada uning sòz boyligi rivojlanmaydi va fikrini mustaqil bayon qilishga qiynaladi.

Diqqat tarqoqligi va giperaktivlik: Ekrandagi tasvirlarning tez almashishi bolaning asab tizimini toliqtiradi. Oqibatda bola boğchada yoki dars jarayonida diqqatini bir joyga jamlay olmaydi, sabrsiz bòlib qoladi.

Ijtimoiy moslashuvning buzulishi: Virtual dunyoga shòngigan bola tengdoshlari bilan qanday òynashni jamoada òzini qanday tutishni va his- tuğularini boshqarishni òrgana olmaydi

SHuningdek bola tarbiyasi masalalari bòyicha Abu Ali Ibn Sino "Tadbir almanozil" nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga tòxtalar ekan , ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarlik bilan farzandlarini ham kasb va hunarga órgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ibn Sino tarbiyaviy qarashlariga oila va oilaviy masalalarga king òrin berilgan. Oilada farzand tarbiyasini tògri yòlga qòyishning asosiy vosiyasi uning manaviy olamida e'tiqotni shakllantirish deb hisoblagan olim. Tarbiya va ta'lim eng yaqin rivojlanish zonasiga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolalarning rivojlanishi uni olğa harakatlantiradi.

Asosan 3 Dan 7 yoshgacha bòlgan davr boğcha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Asosan shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Boğcha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini òashtirish, elementar gigevena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Boğcha yoshidagi bolalar nutqni bir

muncha tòla òzlashtirganligi va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularga òzlariga yaqin bòlgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bòlish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengrow doiradagi munosabatlarga intila bpshlaydilar. Boğcha yoshidagi bola tabiatiga xos bòlgan kuchli ehtiyojlaridan biri, uning har narsani yangilik sifatida kòrib uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Boğcha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan òsishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish zuddi ehtiyoj kabidir bolaning biroe faoliyatga undovchi. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan boğliq bòlgan murakkab psixik holiday desa bòladi. Shuningdek turli yosh davrlarining òziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bòlinadi:

- *gòdaklik(1yoshgacha)
- *Ilk yosh(1- 2 yosh)
- *Ilk yosh guruhi(2-3yosh)
- *kichik yosh(3-4yosh)
- *òrta yosh (4-5yosh)
- *katta yosh (5-6yosh)
- *Maktabga tayyorlov davri(6-7yosh)

Ilk yosh davri bolalarning rivojlanishidagi òziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida tòqqiz oy mobaynida Juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini òtaydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bòladi. Gòdaklik davridan boshlab uch yoshgacha bòlgan davrda dastlabki sòzlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan ,oila a'zolari gòdakni tògri parvarish qilishni yòlga qóyishlari lozim. Bola tushunmas ekan deb ,unga befarq bòlmasliklari ,atrof-muhitdagi buyumlarning, nomini tògri talaffuz qilib ularning nutqini tògri rivojlantirish uchun keng yòl ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola òrtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota -onalar hech Qachon tarbiyani òz holiday tashlab qòymaslikka, ya'ni bolaning Ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani òrganadi, kuzatadi va òzini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini òrganadi. Biz bolani nimaga òrgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz lozim. ya'ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim faqat harf yoki raqam òzgartirishdan iborat emas. Bugungi zamonaviy yondashuv (masalan Òzbekistondagi " Ilk qadam "davlat dasturi)bolani har tomonlama rivojlantirishni kòzda tutadi.

*Ijtimoiy hissiy rivojlanish: Bola òz tuyğularini tushunishi va boshqara olishi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, dòstlashishi va jamoada ishlashni òrganishi .

*Nutq, òqish va savodxonlik:Luğat boyligini oshirish ,fikrini tushunarli bayon qilish ,ertak va hikoyalarni tinglab, ularni qayta gapirib bera olish kònikmasi.

*Bilish jarayoni:Diqqat ,xotira ,mantiqiy fikrlash va tasavvurning shakllanishi .Oddiy matematik tushunchalar (katta -kichik ,shakllar sanash)va atrof muhit haqidagi boshlang'ich bilimlar.

*Jismoniy rivojlanish va soğlom turmush tarzi:Yugurish, sakrash (yirik motorika)bilan birga chizish,London narsalar yasash,qirqish mayda motorika -bu nutq rivojlanishi bilan tògridan -tògri boğliq.

*Ijodiy rivojlanish:Rasm chizish ,ashula aytish ,raqs va teatrlashtirilgan óyinlar orqali bolaning ichki dunyosini namoyon qilish.Boğcha-bolaning jamiyatga qòshiladigan birinchi kòprigidir.Bu yerda ta'lim tarbiyaning asosiy maqsadi bolani jamoada ishlashga òrgatish hisoblanadi.

Tarbiya tushunchasi bolani hamma aytgan narsasini sòzsiz bajaradigan "itoatkor"qilish degani emas.Boğcha yoshiga bolaga tanlash huquqini berish tarbiyaning eng oliy nuqtasidir.

*Bolaga òz kiyimini òzi kiyishi,òyinchoqlarini yig'ishi uchun imkoniyat va vaqt yaratib berish.

*Kichik yoshdan mustaqil qaror qabul qilishga òrgatilgan,bolalar kelajakda òz yòliga ega, kuchli shaxs bòlib yetishadi.

Boğcha yoshida bolaning sòz boyligi keskin kòpayadi.Ta'limning asosiy qismi u bilan ochiq muloqot qilish,ertaklar òqib berish va òqilgan ertak mazmunini boladan sòrash orqali amalga oshiriladi.Bolaning har bir "NEGA?"degan savoliga erinmay javob berish eng yaxshi ta'limdir.Kòp ota-onalar 5 yoshli bolasini majburlab yozish -chizishga,hisob -kitobga majburlashadi.Vaholanki,zamonaviy tadqiqotlar mutlaqo boshqa narsani Bo

kòrsatmoqda:

"Ijro etuvchi funksiyalar"- ya'ni diqqatni jamlash,emotsiyani boshqarish va reja tuzish qobiliyati maktabgacha yoshda faqat erkin qoidasiz óyinlar (masalan loy òynash,rolga kirib òynash)orqali shakllanadi.Biz faqat 5 ta sezgi a'zosini (kòrish,eshtish,hid bilish,ta'm bilish,ushlab kòrish)bilamiz.Lekin bolaning intellektiga tògridan-tògri ta'sir qiluvchi yana ikkita yashirin tizim bor.

*Tana a'zolarining fazodagi òrnini his qilish (mushaklar va bòğimlar orqali)

*Agar bola yetarlicha yugurmasa ağdarilmasa,daraxtga chiqmasa uning vestibulyar tizimi yaxshi rivojlanmaydi.Miyaning muvozanatni saqlashga ma'sul qismi esa kelajakda matematika va òqish qobiliyatiga javob beradigan qismlar bilan chambarchas boğliq.Jismoniy harakat-intellektning poydevoridir.Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi -bu faqat ularning bòy òsishi yoki ma'lum bir sòzlarni

yodlashi kerak. Bu davrda bolaning miyasida, psixologiyasida va jismoniy holatida hayoti davomida eng muhim poydevor vazifasini o'taydigan tub burulishlari yuz beradi. Bo'g'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatiga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalik davri -inson hayotining eng sof va imkoniyatlarga boy davridir. Bu davrda ekilgan tarbiya va bilim urug'lari kelajakda o'z mevasini beradi. Shuning uchun bo'g'cha tarbiyachilari va ota-onalarning zimmasiga bolalarga nafaqat bilim berish, balki ularni sevish, tushunish va ularga erkin, xavfsiz rivojlanish muhiti yaratib berishdek mas'uliyatli vazifa yuklatiladi. Zero, sog'lom va barkamol avlod -Baxtli kelajak garovidir